

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

BADRIDINOVA NILUFAR SADRIDINOVNA

**BOBORAHIM MASHRABNING “MABDAI NUR” ASARIDAGI
TASAVVUFY TUSHUNCHALARNING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Badridinova Nilufar Sadridinovna

Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi tasavvufiy tushunchalarning
falsafiy tahlili3

Бадридинова Нилуфар Садридиновна

Анализ тасаввуф понятий в произведении Боборахима Машраба «Мабдаи
нур».....23

Badridinova Nilufar Sadridinovna

Analysis of tasawwuf notions in the work of Boborahim Mashrab "Mabdai
Nur"45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

BADRIDINOVA NILUFAR SADRIDINOVNA

**BOBORAHIM MASHRABNING “MABDAI NUR” ASARIDAGI
TASAVVUFIY TUSHUNCHALARNING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fal1283 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xuseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Xoshimxonov Mo‘min
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “02” yanvar soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (567 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “19” dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil “19” dekabr dagi 34 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y berayotgan hodisalalar inson hayoti mazmunining tubdan o‘zgarayotganligini aks ettirib, bu hodisalarning ta’siri axloq, tarbiya, o‘zaro muloqot, madaniyat va din sohalarida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv, ma’naviy transformatsiya va modernizatsiya jarayonida madaniy hayotning o‘zgarishi, jamiyatning demoralizatsiya va amoralizatsiya shaklidagi devalvatsiyasi individualizm, egotsentrizm kabi illatlarga qarshi kurashda asrlar davomida islom sivilizatsiyasi rivoji va ta’siri ostida shakllangan Sharq xalqlari merosdan unumli foydalanishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan Boborahim Mashrab tasavvufiy qarashlari diniy aqidaparastlik, diniy mutaassiblikka qarshi kurashda foydalanish, inson qadr-qimmatini, ruhiy olamining barkamolligi, xalqparvarlik g‘oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq diniy-falsafiy ta’limotlari, ayniqsa tasavvuf ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlangan Markaziy Osiyo mutasavviflarining ilmi irfonga oid qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlarini va yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslashga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyo ma’naviy merosidagi imon, insof, mehr-oqibat, inson qalbi, muhabbat, ishq kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish, umuminsoniy madaniyatlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Boborahim Mashrabning boy tasavvufiy-ilmiy merosini, shaxning ma’naviy – qalb, ruh, ishq, muhabbat, jismoniy - tana rivojlanishini, shuningdek, ilohiy nur va vahdat ul-vujud qarashlarini yangicha zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganish hamda ulardan insonni komilik sari tarbiyalashdagi muammolar yechimida foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni qayta tiklash va yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, undan ko‘p millatli hamda turli e’tiqoddagi fuqarolarimizni bahramand qilish borasida, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalash bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur”¹. Shu uchun Boborahim Mashrab asarlaridagi inson ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, axloqi va faoliyatini to‘g‘ri shakllantirish, barkamol insonni tarbiyalashda ijobiy ta’sir etuvchi falsafiy, tasavvufiy g‘oyalarining mohiyatini xalqimiz ongiga singdirishda sog‘lom e’tiqod, yuksak ma’naviyat, irfoniy tafakkurning mazmun-mohiyatini har tomonlama asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – B.225.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boborahim Mashrabning katta orifiy ilm sohibi bo‘lganligini faqat uning zamondoshlari va shogirdlari yozib qoldirgan manbalar, balki o‘zi yozgan asarlari ham tasdiqlab turibdi. Boborahim Mashrabning shaxsiyati hamda ijodiy faoliyati tarixning barcha davrlarida mutafakkir va mutasavviflar tomonidan turlicha tahlil qilib o‘rganib kelinmoqda. Mutasavvifning tarjimai holini o‘zida mujassam etgan ilk manbalaridan Is‘hoq Bog‘istoniyning “Tazkirai qalandaron” risolasi, Malexo taxallusi bilan she‘riy asarlar yozgan Muhammad Bade ibn Muhammad Sharif Samarqandiyning “Muzakkir ul-asxob” (Suhbatdoshlar zikri) tazkirasi hisoblanadi². Xorijlik olimlar A.Schmidt, H.Vamberi, M.Hartmann, G.Ritter, L.Massinon, Ditrel Den Renn, I.Golsiyer asarlarida, shuningdek N.Veselovskiy, U.Ostroumov mavzuga daxldor bo‘lgan tarixiy va siyosiy masalalarini tadqiq qilganlar³.

² Boborahim Mashrab. Mab dai nur. – Toshkent: Fan, 1994.; Kimyo. O‘zRFA ShI xazinasini, inn. №3985/VI, 7873/I, Qissai Vaysul-Qaraniy, Qissayi Me‘roji Rasuli Akram (s.a.v.), g‘azallar, mustazodlar, murabba‘lar. muxammaslar, musaddaslar, musabba‘lar va bir musamman, bir masnaviy hamda ruboiy va fardlar.; Ishoq Bog‘istoniyni. Tazkirai qalandaron. / Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.307.; Muhammad Bade ibn Muhammad Sharif Samarqandiy. Muzakkir ul-asxob. – Samarqand. 1891. 217 v.

³ Schmidt A. D. Alexandria. –Taschkent, 1923.; Wamberi H. Zwei moderne zentralasiatische Dichter, Munis und Amiriy. –Wien, 1892.; Hartman Martin. Devoni Mashrab und König Mashrab. –Berlin; Hartman Martin. Ein Schritt. –Berlin, 1903; Ritter H. Abu Yazid al-Bistami. UDMI; Louis Massignon, Hallaj mystic and Martur (translated, edited

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida V.Vyatkin, A.Karsev, N.S.Likoshin, Ye.E.Bertels tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Boborahim Mashrab ilmiy merosining tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni, A.P.Xoroshxin, N.A.Pantusov, L.Mironova, S.Uludog' kabi olimlarning izlanishlarida mutafakkir Mashrab ijodining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan⁴

XX asr birinchi yarmida G'afur G'ulom, Fitrat va Sadridin Ayniy maqolalarida Mashrabning tug'ilgan joyi va risolalari haqida bahsli ma'lumotlar berilgan. Mamlakatimizda N.Shamsiev, A.Hayitmetov, A.Abdug'ofurov, N.Komilov, V.Abdullaev, I.Haqqulov, A.Abdullaev, P.Qayyumov, Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy, I.Abdulloh, G.Niyozov, Q.Ahmadov, J.Yusupov, S.Sayfulloh, A.Jumanazarov, A.A.Huseynova, B.B.Namozov, O.T.Sharipova, N.O.Safarova, G.Navro'zova, X.X.Raxmatova, Z.Is'hoqova, Z.I.Narziev tadqiqotlarida Mashrab dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy muhit, naqshbandiylik ta'limotining badiiy, falsafiy qarashlariga ta'siri masalalariga bag'ishlanganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq⁵.

Mustaqillik yillarida eng salmoqli falsafiy nuqtai nazardan tadqiqotlar olib borgan olim Mo'min Hoshimxonov bo'lib, Boborahim Mashrab hayoti, faoliyati, ijodi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan⁶.

Tadqiqot ishida yuqorida nomlari qayd etilgan xorijlik va mahalliy olimlarning badiiy, falsafiy mazmundagi ilmiy tahlillari e'tiborga olindi. Umuman tasavvuf, alohida tariqatlarning irfoniy, falsafiy, aksiologik jihatlarining tadqiq etilganligi, Boborahim Mashrab "Mab dai nur" risolasining falsafiy tahlili bo'yicha yaxlit

and abridged by Herbert Mason), Princeton University Press, Princeton, New York.; Ditrel den Ren. Wissenschaftsreise nach Grobasien. -Parij, 1895; Веселовский Н.И. Восточные заметки. – Петербург, 1895.

⁴ Вяткин В.А. Ферганский мистик Диванан-Машраб. Сборник Туркестанского Восточного института в честь проф А.Э.Шмидта. – Ташкент, 1923. Карцев А. Жизнь и газели Машраба. – Ташкент, 1937. "Туркестанские ведомости", 1902, 9-11 сонлар. Лукошин Н.С. "Қиссаи Машраб". – Самарқанд, 1915.; Бертельс Е. Очерк истории персидской литературы. – Ленинград, 1952. – С.51.; Вяткин В.А. Ферганский мистик Дивана-и Машраб. –Т.: 1923; Ликошин Н.С.. Дивана-и Машраб. - Т.: 1910; Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. -Санкт-Петербург, 1876.; Пантусов Н.Н. Протоколы. Туркестанского кружка любителей археологии. -Туркестан, 1899-1900; Улудог С. Тасаввуф терминлари луғати. -Истанбул, 1995.

⁵ Shamsiev N, Hayitmetov A, Mashrab. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1958.; Abdug'ofurov A. Mashrab. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1979. Erk va ozodlik kuychilari. – Toshkent, 1980. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2009. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent, 1980. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –Toshkent, 2007. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. – Toshkent, 2001. Yusupov J. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – Toshkent, 1990. Boborahim Mashrab. "Kulliyot. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2017. Ismatulloh Abdulloh. Boborahim Mashrab "Mab dai nur". – Toshkent: "Fan", 1994. Boborahim Mashrab "Kimyo". – Namangan, 1999. Qayyumov P. Tazkirayi Qayumiy. 1- jild. – Toshkent, 1998. S.Sayfulloh, Jumanazarov A. Qissayi Shoh Mashrab. – Toshkent,, 2014. Navro'zova G., Hoshimxonov M. Buxoro Mashrab tavsifida. – Toshkent,, ; Namozov B.B. Якин тушунчасининг гносеологик мазмуни // Имом Бухорий сабоклари. –Самарқанд: 2018.№3, -Б. 10-13.; Сафарова Н.О. Хожакон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлокий кадрятлар масаласи .фал.фан.ном. дисс... – Тошкент: 2002. 152 б.; Шарипова О.Т. Абдуллохик Гиждувоний Монография. - Бухоро: "Бухоронашр", 2020. – 156 б.; Наврузова Г.Н. Хожа Бахоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. 2021, "Фан", -Б 244.; Raxmatova X.X. Hoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. - Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy. 2023. –Б 167.;2020. Hoshimxonov M. Boborahim Mashrab va XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy axloqiy fikr rivoji. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018. "Mashrabi mo'tabar o'zum". – Toshkent, 2008. Ishoqova Z. Mashrab. - Toshkent: "O'zbekiston", 2015.; Нарзиев Зубайдилло. Хужвирий тасаввуфий таълимоти: антропология ва гносеология масалалари..-Бухоро: Durdon, 2022. -160 б.

⁶ Хошимхонов М. Машраби мўтабар ўзум. (Машрабнинг ижтимоий-фалсафий дунёкараши). Тўлдирилган иккинчи нашр. Монография. –Т.: "ИХТИҲОР RISO PRINT", 2014. 22,5 б.т.; Хошимхонов М. Бобораҳим Машраб ва унинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари / Ўзбекистон фалсафаси тарихи. II-жилд. Ҳаммуаллифликда. Монография. - Т.: "Мумтоз сўз", 2017. 30 б.т.;

kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmaganligi sababli mazkur tadqiqotda ushbu muammoga ilmiy-nazariy yondashishga, metodologik asoslarini ishlab chiqishga, uning strukturaviy-funksional jihatdan uyg'unlashtirish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IV band "O'zbekiston tarixini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muammolari: yechim, qiyosiy tahlil" (2020-2025 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Boborahim Mashrabning "Mabdai nur" asaridagi tasavvufiy tushunchalarning falsafiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Boborahim Mashrab yashagan davrning o'ziga xos xususiyatlari va ma'naviy-madaniy muhitning mutasavvif ma'naviy merosiga ta'sirini tadqiq etish;

mutasavvifning ilmiy merosi va "Mabdai nur" asariga doir ilmiy tadqiqotlarni, yondashuvlarni nazariy-metodologik tahlil qilish;

"nur" tushunchasi va uning tasavvufiy-falsafiy mohiyatini aniqlashtirish;

Boborahim Mashrab qarashlaridagi tasavvufiy kategoriyalarning falsafiy ahamiyatini ochib berish;

Boborahim Mashrabning "Mabdai nur" asarida inson va uning hurligi, ma'rifat xususidagi g'oyalarning mohiyatini tadqiq etish;

"Mabdai nur" asaridagi ilohiy ishqning mohiyatini, uning inson hayotidagi ahamiyatini asoslab berish;

Boborahim Mashrab asarlaridagi tasavvufiy tushunchalarning shaxs ma'naviy-axloqiy barkamolligini tarbiyalashdagi o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Boborahim Mashrab ilmiy merosi, bu merosning tahlilga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Boborahim Mashrabning "Mabdai nur" asaridagi tasavvufiy qarashlarni, nur tushunchasining tasavvufiy-falsafiy mohiyatini, ilohiy ishq va uning inson hayotidagi ahamiyatini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

Boborahim Mashrab yashagan davr madaniy muhiti va mafkurasining o'ziga xos jihatlari hamda asarlarining tarixiy-falsafiy tahlil asosida lirik she'rlar (g'azal, mustazod, muxammas)da, "Mabdai nur" (Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy Masnaviy"dan tazmin qilingan baytlarning turkiy-o'zbek tilidagi sharhlari), "Kimyo" (hikoyat, "dunyo mo'minning zindonidir" hadisining sharhi), "Qissayi Vaysul-Qaraniy" (Shayx Uvaysi Qaraniy fazilat, xislat va karomatlari), "Qissayn Me'rojnomayi Rasuli Akram" (Payg'ambar (s.a.v.)ning me'rojleri) kabi asarlarining tasnifiga tayanib islom qoidalarini to'g'ri anglash, pok axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish g'oyalari hamda ma'rifatga erishish yo'llari, nafsni tiymoq, o'z-o'zini

anglash, halol mehnat kabi axloqiy go‘zal sifatlarning falsafiy ahamiyati ochib berilgan;

Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” va “Kimyo” asarlaridagi tasavvufiy tushunchalar (nur, ma’rifat, tavba, sabr, shukr) genezisi Budda ta’limotidagi “Nirvana” maqomiga erishishda saodat kimyosiga (hayot, sog‘liq, sarvat) hamohang ekanligi hamda axloqiy konsepsiyasining mushohada, riyoziyot va ibodat asosida dunyoga hirs qo‘yish, molparastlikni qoralab, jamoatdan ajralmaslik, xalq bilan birga bo‘lish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash kabi tamoyillari mantiqiy dalillangan;

“Mabdai nur” asaridagi ilohiy ishq va hurlik (mashaqqatli, og‘ir yo‘llardan chidam, bardosh bilan o‘tish, nafsni jilovlash, dunyo hirsu-havaslaridan voz kechish, vujudni, qalbni va ruhni illatlardan poklash yo‘li bilan kamolotga yetish) xususidagi qarashlari shaxsda dilozorlik, birovga aziyat berish, ko‘ngilni og‘ritish, ranjitish kabi illatlarni bartaraf etishda hamda poklik, halollik, rostgo‘ylik, taqvodorlik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, etim-esir, kambag‘al-miskinlarga shafqatli, xayr-saxovatli bo‘lish kabi oliyjanob xislatlarni shakllantirishdagi axloqiy ahamiyati ochib berilgan;

O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurish jarayonida Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi inson qadri-qimmati, ruhiy olamining barkamolligi, xalqparvarlik g‘oyalari va hurlik xususidagi qarashlardan uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ma’naviy-ruhiy poklanish, tinchlik va adolatni ta’minlash, o‘z-o‘zini anglash va o‘zgarish, ijtimoiy faollik va jamiyatda ma’naviy integratsiyani ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirishda foydalanish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Boborahim Mashrab ilmiy merosi tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarning qiyosiy tahlil asosida Is’hoq Bog‘istoniyning “Tazkirai qalandaron” risolasida keltirilgan Pirmat Setoriy va qirq qalandar bilan qilgan sayohatlari oddiy tilanchilik, darbadarlik emas, balki dunyo sevgisidan kechib, tajrid ahlidan bo‘lish, “hammani barham uribman, manga diydor kerak”, faqat Haqni sevish, chinakam ruh erkinligiga erishish g‘oyalarinin falsafiy ahamiyati asoslab berilgan;

Mashrab muxammaslarida rahm-shafqat, ezgu niyat, sof qalb kabi fazilatlarning ulug‘lanishi, nafsu havo, kibr, manmanlik, naslu-nasabdan mag‘rurlanish kabi illatlarning qoralanishi, nodon, kekkaygan, farosatsiz xonlarni, maqtanchoqlarni, ta’magirlarni tanqid etganligi asosida ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo‘nalish shoir dunyoqarashi, xalqchil falsafasining muhim tamoyili ekanligi aniqlashtirilgan;

“Mabdai nur” tasavvufiy asarining inson ruhiyatini, mavjudligini va maqsadini ifoda etishga xizmat qiladigan Alloh bilan birlashish, uning nurini anglash va insonning o‘z-o‘zini tanishi, qalbini poklashi va ilohiy haqiqatni anglash kabi bosh g‘oyalari hamda haqiqiy erkinlik va yuksaklik, ruhiy va ma’naviy poklanish, tasavvufiy yo‘lda o‘z-o‘zini anglash va o‘zgartirish kabi tamoyillari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq

talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan islom dini, ilohiyoti va falsafasi mohiyatini o'rganish, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy tafakkur rivoji, uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, zamonaviy yoshlarda intellektual fazilatlarni, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni shakllantirish, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni zo'rovonlik va radikalizm mafkurasidan himoya qilishda, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan ma'naviyat va ma'rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning faoliyatlarida, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining buyuk mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish faoliyatida shuningdek, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan ko'rsatuvlar va materiallarni tayyorlashda, falsafa, etika-estetika, madaniyatshunoslik kabi fanlarni o'qitishda va ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boborahim Mashrab risolalarining falsafa tarixidagi ahamiyatini ochib berish hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi o'rnini asoslab berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Boborahim Mashrab yashagan davr madaniy muhiti va mafkurasining o'ziga xos jihatlari hamda asarlarining tarixiy-falsafiy tahlil asosida lirik she'rlar (g'azal, mustazod, muxammas)da, "Mabdai nur" (Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy Masnaviy"dan tazmin qilingan baytlarning turkiy-o'zbek tilidagi sharhlari), "Kimyo" (hikoyat, "dunyo mo'minning zindonidir" hadisining sharhi), "Qissayi Vaysul-Qaraniy" (Shayx Uvaysi Qaraniy fazilat, xislat va karomatlari), "Qissayn Me'rojnoma Rasuli Akram" (Payg'ambar (s.a.v.)ning me'rojlarini) kabi asarlarining tasnifiga tayanib islom qoidalarini to'g'ri anglash, pok axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish g'oyalari hamda ma'rifatga erishish yo'llari, nafsni tiymoq, o'z-o'zini anglash, halol mehnat kabi axloqiy go'zal sifatlarning falsafiy ahamiyatiga oid ilmiy yangiliklar hamda taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106 son "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida nashr etilgan ishlarni

tayyorlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 6-avgustdagi 04/11-6069-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jamiyat ijtimoiy hayotida Boborahim Mashrab ma‘naviy merosi “Mabdai Nur” asaridagi falsafiy tushunchalar tahlili asosida ogohlik maqomini insonparvarlik mezonlari va prinsiplari asosida amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” va “Kimyo” asarlaridagi tasavvufiy tushunchalar (nur, ma‘rifat, tavba, sabr, shukr) genezisi Budda ta‘limotidagi “Nirvana” maqomiga erishishda saodat kimyosiga (hayot, sog‘liq, sarvat) hamohang ekanligi hamda axloqiy konsepsiyasining mushohada, riyoziyot va ibodat asosida dunyoga hirs qo‘yish, molparastlikni qoralab, jamoatdan ajralmaslik, xalq bilan birga bo‘lish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash kabi tamoyillariga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-2023-yillardagi faoliyatida, jumladan, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil uchun chora- tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma‘rifat targ‘iboti” 16-bandi “Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, boy ma‘naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ‘ib qilish”da targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 7-avgustdagi 10/44-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi tasavvufiy tushunchalarning falsafiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qilgan;

“Mabdai nur” asaridagi ilohiy ishq va hurlik (mashaqqatli, og‘ir yo‘llardan chidam, bardosh bilan o‘tish, nafsni jilovlash, dunyo hirsu-havaslaridan voz kechish, vujudni, qalbni va ruhni illatlardan poklash yo‘li bilan kamolotga yetish) xususidagi qarashlari shaxsda dilozorlik, birovga aziyat berish, ko‘ngilni og‘ritish, ranjitish kabi illatlarni bartaraf etishda hamda poklik, halollik, rostgo‘ylik, taqvodorlik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, yetim-yesir, kambag‘al-miskinlarga shafqatli, xayr-saxovatli bo‘lish kabi oliyanob xislatlarni shakllantirishdagi axloqiy ahamiyatiga oid ilmiy yangiliklardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy madaniy jamoatchilikni keng xabardor etish hamda ulaming kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha metodik o‘qishlarida, kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 31-iyuldagi 02/310-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Boborahim Mashrab “Mabdai nur” asaridagi ilohiy ishq va hurlik xususidagi g‘oyalaridan, inson qadri-qimmati, ruhiy olaming barkamolligini boyitish, o‘z-o‘zini anglash, suhbat, nafsni tarbiyalash, kibrni yo‘qotish, shukronalik va sabr g‘oyalari hozirgi Yangi O‘zbekiston sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarning barqaror bo‘lishidagi, mafkuraviy immunitetni tarbiyalashdagi ahamiyati, ilmga intiluvchan, jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, rostgo‘y va halol inson bo‘lib yetishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari bo‘yicha ma‘lumotlarni olish imkonini berib, falsafiy, axloqiy

qarashlarini yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurish jarayonida Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi inson qadri-qimmati, ruhiy olamining barkamolligi, xalqparvarlik g‘oyalari va hurlik xususidagi qarashlardan uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ma’naviy-ruhiy poklanish, tinchlik va adolatni ta’minlash, o‘z-o‘zini anglash va o‘zgarish, ijtimoiy faollik va jamiyatda ma’naviy integratsiyani ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirishda foydalanishga oid ilmiy natijalar hamda amaliy taklif-tavsiyalaridan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom Buxoro”, “Yoshlar vaqti”, “Najot bilimda”, “Zamondosh” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda va bevosita suhbat jarayonini suratga olishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 31-iyuldagi 01-09-114-son ma’lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlar Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi falsafiy tushunchalar tahliliga yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda yoshlarni barkamol, ilmga intiluvchan, jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, rostgo‘y va halol inson bo‘lib yetishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalari bo‘yicha ma’lumotlarni olish imkonini berib, teleko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boborahim Mashrab tasavvufiy g‘oyalarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda mabda va nur tushunchalarining falsafiy tahlil hamda XVII asr oxiri XVIII boshlarida O‘rta Osiyodagi madaniy muhitning Boborahim Mashrab

dunyoqarashiga ta'siri, mutasavvif ma'naviy merosining falsafiy tahlili amalga oshirilgan.

Dissertant fikricha, mabdayi nur, ya'ni nurning kelib chiqish joyi bo'lib, islom falsafasi kategoriyasi sifatida nur ilohiy haqiqat, diniy bilimlarni ifodalovchi ilohiy nur haqidagi ta'limot, g'aybiy ilm sifatida qo'llaniladi. Qur'onda nur Allohning o'zini ham anglatgan (osmonlar va yer nuri) va Uni o'z payg'ambari Muhammad (s.a.v.) orqali yuborgan vahiyilar nuri hisoblanadi. Bu – “toza nur”, “nur ustiga nur” uni olovga qiyoslab bo'lmaydi, chunki, u yerdan tashqarida paydo bo'lgan. Xojagon tasavvufiy ta'limotining falsafiy asosi “vaxdat ul-vujud” bo'lib, borliq – yagona asl zotning tajalliysi, nuri deb qaraladi. Ular ta'limoti bo'yicha, butun borliq Haqning jamol va jalolining tajalliysi va ko'rinishlaridir. “Qalb to'la soflikni topganidan so'ng, - deb yozadi Xoja Ali Romitoni, - unda vahdoniyatning nuri porlar, u tajalliy ahli bo'lur”⁷.

Inson ko'rishni, eshitishni, bilishni o'z kamoliga to'g'ri foydalansa zulmatdan nurni ajratib, nurni o'zi qanday bo'lsa shunday ko'radi. Nur hammada mavjud, ammo ayrimlarda uning kuchi kamroq hisoblanadi. Agar nur qancha kuchli bo'lsa, unda ilm va ma'rifat ko'proq bo'ladi. Nurning quvvati asosan halol luqma va qalbni zang g'ubordan poklashi natijasida hosil bo'ladi. Inson Robbisining nuri bilan barcha mulkiga qaraydi. Allohning mulkida ajoyibotlarni ko'radi. Ma'rifat nuri bilan Allohning qudrati va hukmronligini ko'radi. Bandaga ushbu nur sababidan yeru osmondagi ilmlar ochiladi. Demak, sof ko'ngil o'zidan hamisha nur tarqatib turadi. O'sha nur inson qalbini doimo nurafshon qilib, tanasiga tiriklik ato qiladi. Inson o'sha nurdan uzilishi bilan uning tirikligidan hech qanday asar qolmaydi.

Boborahim mulla Vali o'g'li Mashrab Movarounnahrda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrga yashab ijod etadi. Boborahim Mashrabning katta orifiy ilm sohibi bo'lganligini faqat uning o'z davrida yozilgan manbalar tasdiqlab qolmasdan, balki o'zi yozgan ilmning turli sohalari, ayniqsa, tasavvuf ta'limotining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan risolalari ham tasdiqlab turibdi. Boborahim Mashrabning hayoti va ilmiy merosi tarixning barcha davrlarida turlicha tahlil qilib o'rganib kelingan. Mutasavvifning tarjimai holini o'zida mujassam etgan ilk manbalaridan Is'hoq Bog'istoniyning “Tazkirai qalandaron”⁸ risolasidir. Asarda Mashrabning shogirdi Pirmat Setoriy va qirq qalandar bilan qilgan sayohatlari keltirilgan. Shoirning qalandarligi – oddiy tilanchilik, darbadarlik emas. Balki dunyo sevgisidan kechib, tajrid ahliidan bo'lish, “Bir Xudodan o'zgasini g'alat bilib”, faqat Haqni sevish, chinakam ruh erkinligiga erishishdan iborat bo'lgan.

“Tazkirai Qayyumiy”da Mashrab Mullo Bozor Oxun tavsiyasi bilan Qashqarga naqshbandiya tariqati namoyondasi Ofoqxo'jaga murid bo'lganligi keltiriladi. “Boshida Mullo Bozor nomli kishining tarbiyasida bo'lmish. So'ngra Dahbediylardan biri bo'lmish shayx Mullo Hidoyatulloh Xoja laqabli Ofoqxo'jambek xonaqohida bo'lmish”⁹, - deyiladi.

⁷ Romitoni Xoja Ali. Risolai Hazrat Azizon. 1327. Buxoro viloyat muzeyi. Inv. –№ 12548/II. –B.25.

⁸ Ishoq Bog'istoni. Tazkirai qalandaron. / Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B.307.

⁹ Qayumov P. Tazkirayi Qayumiy. 1- jild. – T., 1998. – B 63.

Tadqiqotchi fikricha, Mashrabning ta'limotida pirga bo'lgan muhabbat va sadoqat, xizmat qilish ishtiyoqi, dunyo va din saodatiga erishish e'tiroflari o'z aksini topgan. Zero,

Pirga qo'l topshurdung, emdi mosivoni tashlag'il,
Ey jigarbandim, bukun san muddaoni tashlag'il,
Jumladin begona bo'lg'il, oshnoni tashlag'il,
Xotiringdin dam-badam hirsu havoni tashlag'il,
Boxabar bo'lgilki san, amri Xudodir amri pir¹⁰

Mashrab Hindistonda naqshbandiya-mujaddidiya vakili bo'lgan Poshshoxoja xizmatida uch yil murid bo'lib, ma'rifat, ilohiy ishqdan saboq oladi. Mutasavvifning risolalarida naqshbandiya tariqati nomoyondasi So'fiy Olloyor bilan uchrashganligi haqida ma'lumot uchraydi.

Topmasak So'fi izini Kattaqo'rg'onda yurib,
Qo'shi Allohyor deb azmi Hisor istar ko'ngul¹¹.

Dissertatsiyada Boborahim Mashrabning asarlari tadqiqotchilar tomonidan adabiy, tarixiy hamda falsafiy tahlil qilinganligi keltirilib, unda mutasavvifning risolalari quyidagicha tasniflangan:

1. *Lirik she'rlar*: g'azallar, mustazodlar, murabba'lar. muxammaslar, musaddaslar, musabba'lar va bir musamman, bir masnaviy hamda ruboiy va fardlar.

2. *"Mabdai nur"* ("*Nurlarning boshlanishi*" yoxud "*Nurlar manbasi*"). Risola Boborahim Mashrabning pirlari Hidoyatulla Ofoqxojaning tepshiriqlari bilan yozilgan.

3. *"Kimyo"* (Qimmatbaho ma'dan) risolasi tarkibida 22 ta kimyo bo'lib har bir kimyo alohida-alohida bo'limlardan iboratdir. Har bir kimyo uchun bir, ikki yoki undan ko'proq hikoyat keltiriladi.

4. *"Qissayi Vaysul-Qaraniy"* risolasi 180 bayt, 360 misralik masnaviydir. Mutasavvif risolada Shayx Uvaysi Qaraniy haqlarida, bul tabarruk zotning fazilat, xislat va karomatlari keltirilgan.

5. *"Qissayn Me'rojnomyi Rasuli Akram"* risolasi Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning me'rojlarini malakut olamiga chiqishlari, Arsh, Kursi, Lavh, Qalam, Jannat Do'zax va boshqa ajoyibu g'aroyibotlarni ko'rishlari, Alloh bilan so'zlashishlari va yana qaytib kelishlariga ishonmaslik kufr hisoblanadishining irfoniy tahlili keltirilgan.

Dissertant mulohzalariga ko'ra, Boborahim Mashrabning ijodi va boy merosi milliy va mintaqaviy emas, balki, umumbashariy ahamiyatga molikdir. Mashrab jahon tasavvufining buyuk namoyandalari, avliyo va mashoyixlarining, islom dini ta'limoti, payg'ambarlarning hayoti va ta'limotlarini, ayniqsa, Muhammad payg'ambarning sunnatlarini chuqur o'zlashtirgan buyuk mutafakkir, donishmand va iste'dodli shoir, o'tkir falsafiy dunyoqarash sohibi bo'lgan, degan xulosaga kelgan. Mutasavvifning risolalari islom qoidalarini to'g'ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarning qaror topishida muhim o'rin egallaydi.

¹⁰ Жалолиддин Юсуфий. Бобораҳим Машраб. Куллиёт. – Тошкент: "Muharrir", 2017. – Б. 13.

¹¹ Жалолиддин Юсуфий. Бобораҳим Машраб. Куллиёт. – Тошкент: "Muharrir", 2017. – Б. 13.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**“Mab dai Nur” asaridagi tasavvufiy tushunchalarning falsafiy mohiyati**” deb nomlangan va ushbu bobda Boborahim Mashrabning nur haqidagi g‘oyalarning qiyosiy tahlili hamda ilohiy ishq g‘oyalarining irfoniy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan.

“Mab dai nur” Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy Masnaviy” asaridan tazmin qilingan baytlarning turkiy-o‘zbek tilidagi sharhlaridir. Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 19 ta qo‘lyozma nusxasi tasnif qilingan. “Mab dai nur” tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, falsafiy, axloqiy, tarbiyaviy asar turkumiga kiradi. Mutasavvif risolada tavhid, zikr bilan yashash, o‘zini unutish, dunyo ishratlaridan voz kechish, poklik, halollik, rostgo‘ylik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, yetim-yesir va kambag‘allarga shavqatli bo‘lish, xayr-saxovatli bo‘lish kabi insoniy fazilatlarini targ‘ib qilgan. Boborahim Mashrab saodat kimiyosini topish murakkab amal bo‘lib, hamma ham bunga erisha olmasligini quyidagicha keltiradi:

Xususan kimyoi din balandur,
Tamomi kimyolar munda banddir.
Valek oson topilmas sha’mi iymon,
Jadal qil nafsni o‘ldur, bo‘l musulmon¹².

Demak, mutasavvif fikricha, abadiy saodat kimiyosiga erishishda Alloh payg‘ambar va valiylarni bandalariga ta’lim berishlari, ya’ni qalbini g‘afolat uyqusidan chiqarish uchun yuborganligini keltiradi.

Dissertant fikricha, Mashrab ta’limotida inson bilan yaratuvchi Allohning asli bir vohid, lekin inson vujudi bir nay bo‘lib, unga jon yashiringan. O‘z aslidan ajragan ruh — jon yana o‘sha vujudi mutlaq bilan birlashish, vasliga vosil bo‘lish shavqida naydan nolakor sadolar chiqadi. Demak, inson zikr nuri bilan orsta bo‘lsa, kamoli saodatga muhayyo bo‘ladi. Inson doimo zikr aytsa qalbi ilohiy nurga g‘arq bo‘ladi. Mashrab qarashlarida ishqning ma’no mohiyati, siri va inson qismatidagi olamshumul ahamiyati har tomonlama chuqur irfoniy-falsafiy tahlil qilgan.

Mashrab ta’limotida butun olam, borliq va undagi mavjudlik ishqdan iborat ekanligi, lekin ko‘pchilik insonlar borki haqiqiy ishqqa emas, dunyoga muhabbat qo‘yganliklarini keltirgan:

Ba’zi ishqlar bor imoratlarga band,
Hushlariyu jonlari qasri baland.
Ba’zilarni ishqlari taxtu sarir,
Benihoyat lashkariyu doru tir¹³.

Demak, majoziy ishqdan batamom holi bo‘lgan insongina haqiqiy ishqqa sazovor bo‘ladi. Shubhasiz, tashqi go‘zallik ham Allohning bir lutfidir, u ham o‘ziga yarasha qadrli. Ammo tashqi go‘zallikning o‘zigina yetarli emas, vaqt o‘tib eskiradi, yo‘qoladi. Asl qiymatli bo‘lgani ichki go‘zallik va ma’naviy barkamollikdir. Mutasavvif “Mab dai nur” da olamdagi barcha narsalar odamga singanini hammasi bir vujud ekanligini, ilohiy nur orqali barcha narsalar inson qalbiga tajjاليy qilinishini ta’kidlaydi. Alloh insonni jonini olayotgan vaqtda ilohiy nur orqali Arshni

¹² Боборахим Машраб. Кимё. // тарж. Ҳожа Исмагуллоҳ Абдуллоҳ. – Наманган: “Наманган”, 1999. – Б.17.; Абу Ҳомид Г‘аззолий. Кимийи саодат. – Тошкент: “Мунир”, 2021. – Б.19.

¹³ Боборахим Машраб. Мабдаи нур.// тарж. Ниёзов Г., Ахмедов Қ. – Тошкент: Фан, 1994. – Б.6.

tajalli qilishini, bunday holda farzandu dunyo mollari ham xotirada qolmasligini keltiradi.

Inson ilohiy vasflarning bir tajjalliy natijasida yaratilgan. Shuning uchun, aql va nafs zohiran bir-birini ziddi va bir-biriga teskaridek ko‘rinadi. Biroq ilohiy vasflar ayni paytda birlik rangiga chulg‘anib, bir butun bo‘lishadi. Xuddi shuning uchun insondagi aql va nafs ham Allohning inoyati bilan birlashadi. Insondan kutilayotgani ham shudir. Shunday go‘zal uyg‘unlik tufayli inson dunyo va oxirat saodatiga erishadi. Mashrab fikricha, agar inson turli hijoblardan poklansa uning ruhi ilohiy nurga tajjaliy qilib, parvoz qilinishini ta‘kidlaydi. Bunday tafakkur sohibining axloqi go‘zalligi yuksak darajada bo‘ladi. Har joyda va har narsada Allohni bir kalomini, bir tajjalliyni ko‘rgan inson Allohga sevgisi va taqvosi tufayli borliqqa ham sevgi hamda shavqat bilan yondashadi. Ayni paytda olamga odobli va axloqli munosobatda bo‘ladi.

Dissertant ta‘kidicha, Boborahim Mashrabga Mansur Xalloyning taqdiri katta ta‘sir ko‘rsatgan. Mutasavvif risolalarida, o‘zini dorga osib o‘ldirishni ko‘proq xohlaganligini ko‘rish mumkin. chunki, Mashrab ishqning tajjalliysini Mansur Xalloyning ta‘limotida tushungan hamda haqiqiy ishq, Haqning tajjalliysi, mutasavvifning yagona maqsadi bo‘lgan.

Ishq o‘tiga o‘rtanib devona bo‘lgan o‘zginam,
Kuya-kuya kul bo‘lib biryona bo‘lgan o‘zginam.
Oshiqi diydorman, ey yor, bilmasam magar,
Mansuri Xalloydek dorga osilgan o‘zginam¹⁴.

Dissertant fikricha, Boborahim Mashrab ma‘naviy merosida ilohiy ishq insonni komillik sari yetaklaydigan, uning ichki ma‘naviy-ruhiy olamini sayqallaydigan ajoyib tuyg‘u sifatida ifodalangan. Mutasavvif “Mabdai nur” asarida ilohiy ishqqa sazovor bo‘lgan insonlar qiyomatga qadar yomonliklardan forig‘ bo‘ladilar deb ta‘kidlaydi.

Tadqiqotchining keltirilishicha, Mashrabning ilohiy ishqqa berilganligini tasvvufiy talqin etish asnosida kamtarona tarzda o‘zini bu ishqning tikoni deb yozgan. Mutasavvif Alloh vaslini gulga qiyoslab, tikani sifatida esa unga yetishish yo‘lida ko‘p tarbiyatlar topganligini tushuntiradi¹⁵. Dissertant Mashrab ta‘limotini tahlil qilib, barcha yaxshilik va ezgulik Xudodan, shuning uchun Xudoni sevgan inson yer yuzidagi barcha narsalarni, yoru birodari, ota-onasi, el-yurtini sevadi, karamli va sahovatli bo‘ladi deydi. Mutasavvif nopoklik olamidan poklik olamiga, hayvoniy hirs va nafs qutqulari olamidan ilohiy olamga ko‘tarilish uchun malomatiylik tariqatining qalandarlik harakatiga qo‘shilgan. Bundan maqsad ilohiy ishq hosil qilish hisoblangan.

Mashrabning ko‘ngilni har bir notanish suhbatdoshga ochmaslik, bizga payg‘ambarimizdan vasiyat bo‘lib qolganligini, ma‘rifatsiz insonlarning iymonsizligi, ular bilan bo‘ladigan bahsu munozaralar foyda bermasligi to‘g‘risidagi

¹⁴ Qarang: Boborahim Mashrab. Devon // tarj. Jaloliddin Yusufiy. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2006. –B.81.; Musurmanov E.R. Rahimbobo Mashrab faoliyati va ruhiyati talqini. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2015. – 160 b.

¹⁵ Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур. Сайланма (ғазаллар ва мустазодлар). / Нашрга тайёрловчилар: Г.Ниёзов, В.Ахмедов. – Тошкент: “Фан”, 1994. – Б.31.

pandu nasihatlarini hozirgi davrda xalqimizning aqidaparastlikka, bid'at va turli oqimlarga berilmaslikka chorlash borasida ahamiyatlidir. Mutasavvif diniy mutaassiblikning kelib chiqishiga sababni "Ma'rifatdan bexabarsan, gavharimni kavlama"¹⁶ degan fikri bilan izohlagan.

Dissertant ta'kidlashicha, mutasavvifning Yaratuvchidan boshqa hamma-hammasi "g'alat", ya'ni xato ekanligini tahlil qiladi. Mashrab yaxshi fazilatlar, insoniy xislatlarni Olohndan qidirgan, demak Olohni sevgan kishi insonlarni ham sevishi, o'zida go'zal fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham Mashrab ta'limotida ilohiy muhabbat, xudo va u bilan birlashish haqida fikr yuritibgina qolmasdan, mavjud dunyo, inson va uning fazilatlarini, ilohi ishq-muhabbat, vafodorlik, xalq g'ami to'g'risida qayg'urish, insonga xulq-odob qoidalarini singdirish, yaramas illatlardan xalos bo'lish yo'llarini ochib beradi. Mashrab dunyoqarashida zodagonlar va ruhoniylarni yomon hatti-harakatlari, axloqsizligini tanqid qilish, oxiratdan, jannatu do'zaxning vahimasidan qo'rqmaslik, zamonasidan zorlanish, ruhiy tushkunlik g'oyalari ham muhim o'rinni egallaydi. Demak, Mashrab diniy qoidalarini inkor etmagan. Aksincha, u din yo'lidan chiqib ketgan, shariat qonunlariga rioya qilmay, riyokorlik, muttahamlik, firibgarlik, buzg'unchilik bilan shug'ullanayotgan din vakillarini fosh qilib, ularni to'g'ri yo'lga solmoqchi bo'lgan. U taqvodor mo'min-musulmonlarni, islom dini va shariat qonun-qoidalaridan chetga chiqmagan ruhoniylari sharaflagan¹⁷.

Boborahim Mashrab nafs tasavvufiy kategoriyasi xususida fikr bildirib, nafsni yengish quroli pok ishqdir, degan g'oyani ilgari surgan. Mutasavvifning fikricha, ishq insonga mislsiz kuch-qudrat, g'ayrat-shijoat beradi, ishq, deganda mehr-muhabbat, muruvvat, saxovat, ezgulik, iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, adolat, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarlik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso'zlik, shafqat, umuman, inson qalbini poklashga xizmat qiladigan, uni o'z Yaratuvchisiga yaqinlashtiradigan barcha ezgu fazilatlar tushuniladi. Zero, pokiza so'z va ma'nolar dard va muhabbatdan tug'iladi. Ishqning manzili inson ko'nglidir. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi. Poklangan ko'ngildagi ishq ilohiy mohiyat kasb etadi, ya'ni ishq insonni yuksaltiradi.

Mashrab falsafasida, uning "Mab dai nur" asarida faqat Allohning tan olish, yakka ungagina chin muhabbat qo'yish va uning vasliga talpinish borasidagi barcha jarayonlar tasavvufiy tushunchalar va iboralar vositasida amalga oshirilgan. Buxorolik ulug' shayx Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq Kalobodiy (vaf. 991 y.) "At-Ta'arruf li mazhabit-tasavvuf" (Tasavvuf yo'lini tanishtirish) kitoblarida tasavvuf yo'lining ning 17 amali borligini ta'kidlaganlar, Boborahim Mashrabning "Mab dai nur" asarida mazkur 17 tushunchaga to'xtalib o'tilganligi e'tiborga molik.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Boborahim Mashrabning "Mab dai nur" asaridagi tasavvufiy tushunchalarning falsafiy tahlili dalolat beradiki, asar xalqimizni insoniylikka, milliy qadriyatlarimizga hurmat, halol turmush tarzini kechirishga intilish ruhini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asardagi

¹⁶ Бобораҳим Машраб. Мабдайи нур. Сайланма (ғазаллар ва мустазодлар). Нашрга тайёрловчилар: Г.Ниёзов, В.Ахмедов. – Тошкент: "Фан", 1994. – Б.12.

¹⁷ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар // М. Хайруллаев, Х. Алиқулов. – Тошкент, 1995. – Б.196.

tasavvufiy tushunchalarning falsafiy mohiyati tasavvuf falsafasi fanining bilish, borliq, inson xususidagi masalalarini o'rganishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurishda “Mabdai nur” asaridagi falsafiy-tasavvufiy g‘oyalardan foydalanish zarurati”** deb nomlangan uchinchi bobida Boborahim Mashrab “Mabdai nur” asarida ilohiy ishqning mohiyati va uning inson hayotidagi ahamiyati xususidagi qarashlarining diniy aqidaparastlik, diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi o‘rni, inson qadri-sharafi va ma’naviy kamoloti haqidagi g‘oyalarning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Boborahim Mashrabning “Mabdai nur” asaridagi hurlikni tarannum etgan irfoniy-ma’rifiy mazmundagi falsafiy qarashlarining ifodasini bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) munojot-g‘azallar;
- 2) Xudo va payg‘ambar madhiga bag‘ishlangan na’t-hamd g‘azallar;
- 3) oshiqning ahvolini tasvirlovchi holatlar sharhiga doir g‘azallar;
- 4) falsafiy fikr-mushohadalarni ifodalovchi g‘azallar.

Mashrab diltortar va ilohiy ishq tarannumi aks etgan she’rlari bilan asrlar osha kishilarning qalblarini yoritib, hammaga manzur bo‘lgan. Mashrab asarlarini nafakat o‘zbeklar, afg‘on, tojik, uyg‘ur xalqlari ham sevib o‘qigan. Mashrabning hayot yo‘lini yorituvchi yagona manba – “Qissai Mashrab”dir.

